| АскарOVA Мавлуда Турабовна                                                                                                                                                         |      |
| XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI<br>TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                       | 1171 |
| Ibragimov G'anijon G'ayratovich                                                                                                                                                    |      |
| BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI<br>RIVOJLANTIRISH.....                                                                                    | 1176 |
| Muxitdinova Difuza Farxodovna                                                                                                                                                      |      |
| KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO<br>BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING<br>METODOLOGIK TAMOIYLLARI ..... | 1183 |
| Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                                                                         |      |
| TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI<br>("TURONBANK" ATB MISOLIDA) .....                                                                                      | 1191 |
| Togayev Salim Sobirovich                                                                                                                                                           |      |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL<br>BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....                                                   | 1196 |
| Obidov Sanjar Omonxo'jayevich                                                                                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH<br>IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL .....                                                 | 1202 |
| Qodirjonov Adhamjon                                                                                                                                                                |      |



|                                                                                                                                             |      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH .....                             | 1206 |
| Suyunov Yorqin Bekturodovich                                                                                                                |      |
| BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI .....                                      | 1212 |
| Arifbayev Bobur Dilshodovich                                                                                                                |      |
| СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» .....              | 1219 |
| Аблаева Валентина Борисовна                                                                                                                 |      |
| FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT .....                         | 1227 |
| I. Imomov, F.Nishonov                                                                                                                       |      |
| ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ .....                                                          | 1234 |
| Шоев Алим Халмуратович                                                                                                                      |      |
| ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME .....                              | 1239 |
| Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi                                                                                              |      |
| ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME .....                              | 1239 |
| Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi                                                                                              |      |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI ..... | 1247 |
| Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna                                                                                                           |      |
| HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI .....                          | 1251 |
| Ollanazarov Bekturod Davlatmuratovich                                                                                                       |      |



# HUDUDIIY MOLIIYAVIIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD.

[bdollanazarov@gmail.ru](mailto:bdollanazarov@gmail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda investitsion faollikning o'рни va uni rivojlantirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Investitsion faollik hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, raqobatbardoshligi va moliyaviy mustahkamligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida baholangan. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional va makroiqtisodiy islohotlar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, investitsiya muhitini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash jarayonlarining hududiy investitsion faollikka ta'siri yoritilgan. Xorazm viloyati misolida investitsion jarayonlarning tarmoqlar bo'yicha tarkibi, hududiy rivojlanishdagi tafovutlar va ularni muvozanatlashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** investitsion faollik, hududiy moliyaviy barqarorlik, investitsion siyosat, investitsiya muhiti, hududiy rivojlanish, investitsiya infratuzilmasi, davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalarni diversifikatsiyalash, iqtisodiy barqarorlik.

**Abstract.** The article presents a scientific analysis of the role of investment activity in ensuring regional financial stability and explores the mechanisms for its development. Investment activity is considered a key factor that contributes to socio-economic development, enhanced competitiveness, and strengthened financial sustainability of regions. The study highlights the positive impact of institutional and macroeconomic reforms, the expansion of public-private partnership mechanisms, the improvement of the investment climate, and the diversification of financing sources on regional investment activity in the Republic of Uzbekistan. Using the case of the Khorezm region, the sectoral structure of investment processes, regional development patterns, and approaches to achieving balanced growth are examined.

**Key words:** investment activity, regional financial stability, investment policy, investment climate, regional development, investment infrastructure, public-private partnership, investment diversification, economic sustainability.

**Аннотация.** В статье представлен научный анализ роли инвестиционной активности в обеспечении региональной финансовой устойчивости и раскрыты механизмы её развития. Инвестиционная активность рассматривается как ключевой фактор, способствующий социально-экономическому развитию, повышению конкурентоспособности и укреплению финансовой устойчивости регионов. Освещено влияние институциональных и макроэкономических реформ, расширения механизмов государственно-частного партнёрства, совершенствования инвестиционного климата и диверсификации источников финансирования на региональную инвестиционную активность в Республике Узбекистан. На примере Хорезмской области проанализированы отраслевая структура инвестиционных процессов, особенности территориального развития и направления их сбалансированного совершенствования.

**Ключевые слова:** инвестиционная активность, региональная финансовая устойчивость, инвестиционная политика, инвестиционный климат, региональное развитие, инвестиционная инфраструктура, государственно-частное партнёрство, диверсификация инвестиций, экономическая устойчивость.

## KIRISH

Hududning moliyaviy barqarorligi, korxonalar raqobatbardoshligi hamda aholining farovonlik darajasi investitsion faollik va investitsion jozibadorlikni belgilovchi muhim iqtisodiy omillar hisoblanadi. Makroiqtisodiy barqarorlik investitsion risklarni kamaytirish orqali kapital oqimlarining faollashuviga xizmat qiladi. Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, pandemiya davri tajribasi hamda tashqi bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi investitsion siyosatni moslashuvchan, prognozli va tizimli yondashuvlar asosida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [1].



O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy islohotlar, biznes muhitini takomillashtirish, fiskal rag'batlantirish choralari kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hududlarning investitsion salohiyatini bosqichma-bosqich oshirib bormoqda. Mazkur jarayonlar "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida huquqiy jihatdan tartibga solinadi [2].

Hududiy investitsiya siyosati davlat tartibga solish vositalari bilan bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi asosida amalga oshirilganda investitsiya oqimlarining barqarorligi va samaradorligi ta'minlanadi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, yashil energetika va xizmatlar kabi strategik tarmoqlarda hududlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi [3].

Investitsion faollik hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlovchi bazaviy iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning mazmuni jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi, tarkibi hamda ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirilish samaradorligi bilan belgilanadi. Investitsiya resurslarining maqsadli va samarali joylashtirilishi sanoat, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi, infratuzilma va ijtimoiy tarmoqlarda barqaror o'sish dinamikasini ta'minlab, hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi [4].

Bugungi kunda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish va yangi kapital oqimlarini jalb etish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar, resurs salohiyatining o'ziga xosligi, infratuzilmaning rivojlanish sur'atlari hamda mehnat salohiyati sifati investitsiya oqimlarining hududlar kesimida turlicha shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Bozor islohotlari, hududiy rivojlanish dasturlari hamda investitsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish choralari mazkur tafovutlarni bosqichma-bosqich muvozanatlashtirishga xizmat qilmoqda. Biroq mintaqaviy investitsion faollik darajasi iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy boshqaruv tizimlari samaradorligini yuksaltirish bilan uzviy bog'liqdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda investitsion faollikning hududiy moliyaviy barqarorlikka ta'sirini aniqlash maqsadida tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil, statistik tahlil va taqqoslama usullar qo'llanildi. Shuningdek, investitsion jarayonlarning hududiy xususiyatlarini aniqlashda strukturaviy tahlil va dinamik qatorlar asosida baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik asosini rasmiy statistika ma'lumotlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, hududiy investitsion dasturlar hamda tegishli ilmiy manbalar tashkil etdi. Olingan natijalar ilmiy umumlashtirish, mantiqiy xulosalash va kompleks tahliliy baholash asosida asoslab berildi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy moliyaviy barqarorlik va investitsion faollik o'rtasidagi bog'liqlik zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xalqaro ilmiy manbalarda investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin etilib, ularning hududiy rivojlanishga ta'siri makro va mikro darajada tahlil qilinadi.

Avvalo, investitsiya muhiti va institutsional omillarning hududiy rivojlanishga ta'siri masalasi World Bank hamda OECD tadqiqotlarida keng yoritilgan. World Bank hisobotlarida investitsiya muhiti sifati, huquqiy kafolatlar, infratuzilma va boshqaruv samaradorligi kapital oqimlarining hududlar kesimida taqsimlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. OECD esa hududiy siyosat va investitsiya oqimlarining muvozanatli taqsimlanishi mintaqaviy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Investitsiyalar va barqaror rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik UNCTAD tomonidan chop etiladigan "World Investment Report"larda chuqur tahlil qilinadi. Mazkur hisobotlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyati va texnologik modernizatsiyani ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholanadi.

Milliy miqyosda investitsion faollikning huquqiy va institutsional asoslari O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni bilan belgilangan bo'lib, unda investorlarga beriladigan kafolatlar, mulk daxlsizligi va nizolarni hal etish mexanizmlari mustahkamlangan.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" Strategiyasida hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va investitsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

O'zbek olimlari tomonidan investitsion faollik va hududiy rivojlanish masalalari tizimli o'rganilgan. Xususan, I.O. Madaminov investitsiyalarning hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilib, investitsiya resurslarining tarmoq tarkibi va hududiy taqsimoti moliyaviy barqarorlik darajasiga bevosita bog'liqligini asoslab bergan. B.B. Ibrohimov esa investitsiya jarayonlarining strategik ahamiyatini ko'rsatib, ularning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi multiplikativ ta'sirini ilmiy jihatdan asoslagan.



Shuningdek, Bektemirov A., Mamatqulov I.A., Ruzibayeva N.X. va Malikova D.M. tomonidan yaratilgan darsliklarda investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari, kapital qo'yilmalar samaradorligini baholash usullari hamda hududiy investitsion siyosatni amalga oshirishning nazariy asoslari keng yoritilgan. Karliboyeva R.X. hamda Burxanov A.U., Muminov Sh.X., Xudoyqulov X.X. asarlarida investitsiya jarayonlarini moliyaviy boshqarish, innovatsion investitsiyalarni rag'batlantirish va hududiy iqtisodiyotda kapital aylanishini jadallashtirish masalalari tahlil qilingan.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining investitsion faollikka ta'siri ham alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni investitsiya loyihalarini amalga oshirishda institutsional hamkorlik modelini huquqiy jihatdan mustahkamlab, hududiy infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion faollik hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kompleks omil bo'lib, uning samaradorligi institutsional muhit sifati, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi, infratuzilma rivoji va boshqaruv tizimlari samaradorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalarda hududlar kesimida investitsiya oqimlarining moliyaviy barqarorlikka bevosita ta'sir mexanizmlarini chuqur iqtisodiy tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, investitsiyalar — bu mulkiy va intellektual boyliklar, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, mulkiy huquqlar hamda boshqa aktivlarning tadbirkorlik va ijtimoiy soha faoliyatiga daromad olish yoki ijtimoiy samara keltirish maqsadida yo'naltiriladigan resurslar majmuasidir [2]. Ushbu yondashuv investitsiyalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat kapital qo'yilma, balki iqtisodiy taraqqiyotning tarkibiy va funksional omili sifatida talqin etishga imkon beradi.

Investitsiya resurslari iqtisodiy muomalada uch asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

1. moddiy aktivlar — asosiy vositalar, texnologik jihozlar, bino va inshootlar;
2. moliyaviy va mulkiy aktivlar — qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, ilmiy-texnik ishlanmalar;
3. pul aktivlari — naqd mablag'lar, omonatlar, ulushlar va boshqa moliyaviy vositalar.

O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, xususiy mulkni himoya qilish mexanizmlarining mustahkamlanishi, soliq va bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi hamda investitsiya muhitining takomillashuvi investitsiya jarayonlarining mazmuni va shakllarini diversifikatsiya qilmoqda. Qonunchilikda investorlarga berilgan kafolatlar, mulk daxlsizligi tamoyili, investitsion nizolarni hal etish tartibining takomillashtirilishi hamda investor huquqlarining xalqaro standartlar asosida himoya qilinishi investitsiya oqimlarining barqarorligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda [5].

Investitsion faollik milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning samaradorligi investitsiyalarning tarkibi, ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilish darajasi, modernizatsiya jarayonlariga qo'shgan hissasi va iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichlari orqali namoyon bo'ladi. Investitsiya resurslarining maqsadli va oqilona joylashtirilishi sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, xizmatlar sohasi, yashil energetika, transport-logistika hamda ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlarida tarmoqlararo sinergiyani kuchaytirib, hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mintaqalarda investitsion faollikni oshirish jarayonida moliyalashtirish manbalarining yetarliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim hududlarda moliyaviy resurslar hajmining cheklanganligi investitsiya loyihalarini amalga oshirish sur'atlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, xususiy, korporativ hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investitsion jarayonlarning drayveri hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy byudjet mablag'lari va davlatning institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ham hududiy investitsion faollikni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi.

Hududlarning investitsion salohiyatini rivojlantirishda moliyalashtirish manbalari tarkibi tobora diversifikatsiyalanmoqda. Davlat investitsiya dasturlari, xalqaro moliya institutlari kreditlari, davlat-xususiy sheriklik loyihalari hamda xususiy investorlar ishtirokining kengayishi hududiy investitsion faollikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari nisbatan past hududlarda esa davlat qo'llab-quvvatlovi, bank kreditlari va kafolat mexanizmlari investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashning asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Hududiy investitsion faollik ichki va tashqi omillarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Ichki omillarga mahalliy boshqaruv samaradorligi, infratuzilma rivoji, investitsiya loyihalarining iqtisodiy jozibadorligi, mehnat resurslari sifati hamda institutsional kafolatlar kiradi. Ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish ushbu omillarning ijobiy ta'sirini kuchaytiradi. Tashqi omillar esa makroiqtisodiy



barqarorlik, davlat strategiyasining izchilligi, investitsiya muhitining raqobatbardoshligi hamda investorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan belgilanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar, soliq yukining maqbullashtirilishi, davlat-xususiy sheriklikning kengayishi va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar hududiy investitsion faollikni rag'batlantirmoqda. Shu bilan birga, hududlar kesimida investitsiya hajmining farqlanishi infratuzilma sifati, kadrlar salohiyati, mahalliy boshqaruv tizimlarining samaradorligi hamda kapital qo'yilmalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bevosita bog'liqdir [6].

Hududlarning investitsion jozibadorligi ishlab chiqarish salohiyati, transport-logistika infratuzilmasi, innovatsion muhit va boshqaruv samaradorligi bilan belgilanadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining izchil amalga oshirilishi iqtisodiy salohiyati nisbatan past hududlarda ham investitsion jarayonlarning faollashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xususiy sektor faolligini oshirish, mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yanada takomillashtirish investitsion faollikni yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi investitsion faollikning oshishi hamda mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning qisqarishiga xizmat qiladi. Viloyatlar rivojlanishidagi farqlar infratuzilmani modernizatsiya qilish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, hududiy investitsiya dasturlarini uzoq muddatli rejalashtirish va diversifikatsiyalash orqali bosqichma-bosqich muvozanatlashtirilmoqda.

Investitsion faolliги yuqori hududlar rivojlangan sanoat va logistika infratuzilmasi, faol xususiy sektor hamda eksport salohiyati bilan ajralib turadi. Toshkent shahri va viloyati, Navoiy, Buxoro hamda Farg'ona viloyatlarida sanoat zonalar va erkin iqtisodiy hududlarning rivoji davlat, xususiy va xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtirmoqda. Hududiy investitsion siyosat samaradorligi investitsiyalar hajmidan tashqari, ularning iqtisodiy samaradorlik va qo'shilgan qiymat yaratish darajasi bilan baholanadi [7].

Shuningdek, turizm, rekreatsiya va agrar yo'nalishlarga qaratilgan investitsiyalar hududiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Xususan, Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, rekreatsion salohiyatni kengaytirish hamda madaniy meros obyektlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar hududning investitsion jozibadorligini mustahkamlab, iqtisodiy faollikni rag'batlantirmoqda.

Turizmnı rivojlantirish va madaniy meros obyektlarini asrash hamda ulardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan davlat, xususiy va xalqaro investitsiyalar hududning investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, madaniy festivallarni tashkil etish hamda infratuzilma loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash barqaror turist oqimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xorazm viloyatida agrar sektor qishloq xo'jaligi klasterlari, intensiv bog'dorchilik, baliqchilik va qayta ishlash sanoati asosida rivojlanmoqda. Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va grantlar agrar tarmoqlarning modernizatsiyasini jadallashtirmoqda. So'nggi yillarda texnoparklar tashkil etish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishga qaratilgan investitsiyalar viloyatning agrar salohiyati va eksport imkoniyatlarini mustahkamladi [8].

Umuman olganda, turizm va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar Xorazm viloyatida iqtisodiy faollik, bandlik va eksport o'sishining muhim omiliga aylanmoqda.

So'nggi yillarda Xorazm viloyatining investitsion salohiyati sezilarli darajada oshib, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm, qayta ishlash, logistika va xizmatlar sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, bandlikni kengaytirish va iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik, xususiy sektor faolliги va davlat qo'llab-quvvatlovi natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilmoqda hamda zamonaviy korxonalar barpo etilmoqda. Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat hududlarida yaratilgan soliq, bojxona va infratuzilma imtiyozlari investitsiya loyihalari ko'lamini kengaytirib, eksport salohiyatini oshirmoqda [9].

Umuman, investitsiya dasturlarining izchil amalga oshirilishi Xorazm viloyatining raqobatbardoshligini kuchaytirib, uning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlamoqda.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, so'nggi yillarda ushbu sohaga yo'naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmi sezilarli darajada oshdi [10]. Xususan, Xorazm viloyatida yangi tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish, biznesni kengaytirish va startap loyihalarini moliyalashtirishga qaratilgan davlat dasturlari faol amalga oshirilmoqda.

Kreditlar, subsidiyalar, grantlar hamda inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarining joriy etilishi hududiy tadbirkorlik ekotizimini rivojlantirib, bandlik va innovatsion faollikni oshirmoqda. Turizm va rekreatsiya yo'nalishlarining rivojlanishi, tarixiy-madaniy obyektlarning ommalashuvi hamda turistik infratuzilmaning kengayishi viloyatning investitsion jozibadorligini yanada mustahkamlab bormoqda [11].

Umuman olganda, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar Xorazm viloyatida iqtisodiy faollikni kengaytirish, bandlikni oshirish hamda hududiy farovonlikni yuksaltirishning muhim omiliga aylanmoqda.



O'zbekistonda hududiy investitsion siyosat iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish hamda mahalliy moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Investitsion faollikning izchil oshishi hududlarning yalpi hududiy mahsulot hajmini kengaytirib, ularning milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirmoqda.

Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sish investitsiya faolligi bilan uzviy bog'liq bo'lib, turizm, agrar tarmoqlar va qayta ishlash sanoatidagi mavjud salohiyat uni mintaqaviy investitsiya markazlaridan biriga aylantirmoqda. So'nggi yillarda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi iqtisodiy faollik kengayganini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat, energetika, ijtimoiy soha va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha diversifikatsiyalangan bo'lib, ayniqsa agrar va turizm tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Natijada investitsiyalarning tarmoq diversifikatsiyasi Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xorazm viloyatida investitsiya va tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, baliqchilik, qayta ishlash, logistika va turizm sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirish imkonini bermoqda. Ushbu loyihalar yangi ish o'rinlarini yaratib, hududning iqtisodiy faolligini oshirmoqda.

Shu bilan birga, investitsion salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun infratuzilmani yanada rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalarning hududlar kesimida muvozanatli taqsimlanishi uzoq tumanlarda ham iqtisodiy faollikni faollashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, investitsion faollikni oshirish infratuzilmani modernizatsiya qilish, erkin iqtisodiy zonalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash institutlarini mustahkamlash hamda innovatsion ekotizimni rivojlantirishga tayanishi lozim. Investitsiyalarning hududiy diversifikatsiyasi viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Xorazm viloyatining 2030-yilgacha bo'lgan rivojlanish strategiyasida hududning geografik joylashuvi, tabiiy va mehnat resurslari hamda boy madaniy merosiga tayanib, turizmni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlashni kengaytirish, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda mahalliy xomashyo asosidagi sanoatni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Viloyatning boy tarixiy-madaniy merosi va rekreatsion salohiyati uni istiqbolli turistik markazga aylantirish uchun mustahkam zamin yaratadi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish turizm xizmatlarini diversifikatsiyalash, klaster yondashuvini keng joriy etish hamda marketing strategiyalarini kuchaytirishni talab etadi. Turistik klasterlarni rivojlantirish infratuzilmani kompleks shakllantirish, investitsiyalarni jalb qilish va bandlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bog'dorchilik, issiqxona xo'jaligi, chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish orqali agrar tarmoqni modernizatsiya qilish hamda eksport salohiyatini oshirish imkoniyati kengaymoqda. Umuman, Xorazm viloyatining investitsion rivojlanish strategiyasi ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish, ustuvor tarmoqlarni rivojlantirish va hududning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

So'nggi yillarda viloyatda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o'sib, sanoat, agrar sektor, turizm, transport-logistika va ijtimoiy infratuzilma yo'nalishlarida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Tarixiy-madaniy meros obyektlari va qulay ekologik muhit turizm hamda rekreatsiya sohasini ustuvor investitsiya yo'nalishiga aylantirib, infratuzilmani modernizatsiya qilish va bandlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Agrar sektorda issiqxona xo'jaliklari, chorvachilik, baliqchilik klasterlari va qayta ishlash sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar viloyatning eksportbop va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlab bormoqda. Xorazmning geografik joylashuvi transport-logistika klasterlarini rivojlantirish, logistika markazlari va tranzit infratuzilmasini kengaytirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, maktablar, tibbiyot va madaniyat obyektlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan investitsiyalar ijtimoiy infratuzilmaning sifat jihatidan yaxshilanishini ta'minlamoqda.

Investitsion faollikning ijobiy dinamikasiga qaramay, ayrim hududlarda infratuzilmani yanada rivojlantirish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va moliyaviy vositalarni kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda. Shu bois investitsion infratuzilmani modernizatsiya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va hududiy moliyaviy mustahkamlikni kuchaytirish viloyatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlil Xorazm viloyatida investitsion siyosatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Avvalo, hududiy investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtiruvchi va investorlarni qo'llab-quvvatlash funksiyalarini birlashtirgan samarali boshqaruv tizimini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Investorlarga axborot xizmatlarini rivojlantirish uchun viloyatning investitsion salohiyati bo'yicha yagona raqamli ma'lumotlar bazasi hamda muntazam yangilanib boruvchi investitsiya portalini joriy etish zarur.



Hududning investitsion imijini mustahkamlash respublika va xalqaro darajada PR va marketing mexanizmlarini faollashtirishni talab etadi. Investitsion infratuzilmani rivojlantirish doirasida moliyaviy institutlar faoliyatini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish hamda sanoat va erkin iqtisodiy zonalarda muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Investorlar uchun yanada qulay muhit yaratish soliq va bojxona imtiyozlarini takomillashtirish hamda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantiruvchi maxsus rejimlarni keng joriy etishni nazarda tutadi.

Shuningdek, moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiyalash maqsadida imtiyozli kreditlash tizimini kengaytirish va hududiy venchur fondlarini tashkil etish orqali innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarur. Investitsion risklarni kamaytirish esa sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish, loyiha boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash hamda ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari investitsion faollik hududiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekanligini tasdiqladi. Investitsiya resurslarining hajmi va tarkibi, ularning ustuvor tarmoqlarga yo'naltirilish darajasi hamda boshqaruv samaradorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi. O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, investitsiya muhitini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish choralari investitsion faollikni izchil oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, hududlar o'rtasidagi infratuzilma rivoji, kadrlar salohiyati va boshqaruv imkoniyatlaridagi tafovutlar investitsiya oqimlarining hududlar kesimida turlicha shakllanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur holatni inobatga olgan holda, hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish doirasida investitsion infratuzilmani kompleks rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda investitsiyalarni hududiy diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, mahalliy boshqaruv tizimlari samaradorligini oshirish, investorlar uchun barqaror institutsional va moliyaviy sharoitlar yaratish hamda ustuvor tarmoqlarda investitsiya loyihalarini tizimli qo'llab-quvvatlash hududlarning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni. 25.12.2019-y. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 11.09.2023-y. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-son Qonuni. 10.05.2019-y. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-4329270>
4. Bektemirov A., Mamatqulov I.A., Ruzibayeva N.X., Malikova D.M. Investitsiyalarni moliyalashtirish: darslik. Samarqand: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024. – 590 bet.
5. Madaminov I.O. Investitsiyalar va ularning hudud iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'siri. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2023, 4-son (iyul–avgust), № 00066. DOI: [https://doi.org/10.55439/EIT/vol11\\_iss4/a11](https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss4/a11)
6. Karliboyeva R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: darslik. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 124 b.
7. Burxanov A.U., Muminov Sh.X., Xudoyqulov X.X. Investitsiya va innovatsiyalar. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 462 b.
8. Ibrohimov B.B. Investitsiya jarayonlarining hududiy iqtisodiy rivojlanishga strategik ta'siri. Innovations in Science and Technologies. 2026, 3(1), 36–46. Available at: <https://innoist.uz/index.php/ist/article/view/1434>
9. World Bank. Investment Climate. Available at: <https://www.worldbank.org/en/topic/investment-climate> Shuningdek: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099050223164035540>
10. OECD. Regional Policy. Available at: <https://www.oecd.org/regional/regional-policy>
11. UNCTAD. World Investment Report. Available at: <https://unctad.org/topic/investment/world-investment-report>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---